

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

1-son

(yanvar-fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



MADANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI

- D. Kosimova 75** Oliy ta'lim tizimi talabalarida milliy musiqa madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari



MAKTABGACHA TA'LIM

- D. Asqarova 79** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida teatrlashgan faoliyatni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari
- K. Sabirova 83** Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish



ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

- F. To'rabekov 88** Axborot texnologiyalari texnologik ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni samarali tashkil etish vositasi sifatida



PSIXOLOGIYA

- N. Saidova 94** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematikaviy kompetensiyalarni shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning psixologik jihatlari



QIYOSIY PEDAGOGIKA

- B. Akbarov 98** Yaponiyada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimining o'ziga xos xususiyatlari
- M. Dumarov 102** Xorij mamlakatlarida ijtimoiy voqelik idrokiga doir psixologik tadqiqotlar tahlili



AXBOROT TAHDIDLARIDAN HIMOYA

- D. Miraliyeva 107** Bolalarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashchanlik ko'nikmasini shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammosidir



XALQ PEDAGOGIKASI

- U. Mahkamov, D. Ismoilova 110** Allomalar merosi – milliy tarbiya asosi
- L. Islamova 115** Mirzo Ulug'bek merosidan ta'lim jarayonida foydalanishning dolzarb masalalari



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

- И. Ганчерёнок, Я. Исмадияров, Н. Горбачёв 119** Кадровая диалектика для обеспечения цифровой трансформации: кадры или таланты



СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

- Н. Шарипова 128** Информатизация учебного процесса – один из важнейших факторов оптимизации обучения



ФИЗКУЛЬТУРА

- Т. Ачилов, И. Чориев 132** Проектирование технологии личностно-ориентированного физического воспитания школьников
- Ш. Мардонов, Ж. Исаков 136** Физическое развитие на уроках физической культуры в начальной школе



КОРРЕКЦИОННАЯ ПЕДАГОГИКА

- С. Ачилова 140** Логопедическая работа в специализированных учреждениях с диагнозом дизартрия

Ulfat MAHKAMOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari doktori

Dilafruz ISMOILOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti "Pedagogika va menejment"

kafedrası o'qituvchisi

ALLOMALAR MEROSI – MILLIY TARBIYA ASOSI

Annotatsiya

Maqolada buyuk ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy merosimizni asrab-avaylash masalalari yoritilgan. Mualliflar ta'lim muassasalarda talabalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish, ularda milliy immunitetni shakllantirish bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini berib o'tishgan.

Kalit so'zlar. Ma'naviy boylik, milliy tarbiya masalalari, qadriyat, targ'ibot, dunyoqarash, ma'naviy meros, insoniy fazilatlar.

В статье рассматриваются вопросы сохранения духовного наследия наших великих предков. Авторы высказали свои взгляды и замечания на развитие духовного мировоззрения студентов в образовательных учреждениях, формирование у них национального иммунитета.

Ключевые слова. Духовное богатство, вопросы народного образования, кадры, пропаганда, мировоззрение, духовное наследие, человеческие качества.

The article deals with the issues of preserving the spiritual heritage of our great ancestors. The authors expressed their views and comments on the development of the spiritual outlook of students in educational institutions, the formation of their national immunity.

Key words. Spiritual wealth, issues of public education, personnel, propaganda, world-view, spiritual heritage, human qualities.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar" kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarurligiga oid bir qator vazifalarni amalga oshirishiga alohida e'tibor qaratdi. Albatta ushbu vazifalarni amalga oshirishda allomalar merosini, ayniqsa ulug' mutafakkirlarning ilg'or fikrlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki ularning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya sohasidagi benazir fikrlari, axloqiy qarashlari bugungi taraqqiyot uchun ham, yosh avlod kamoloti uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Ularning hayot ma'nosi, jamiyatda insonning tutgan o'rni, axloq haqidagi purma'no fikrlari har bir o'quvchini tarbiyalash jarayonida muhim o'rinni egallaydi. Shu jihatdan olganda, O'rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari, o'g'itlari shunday kuchga egaki, ular o'quvchilar qalbida insoniylik

urug'larini unib, katta hayot yo'liga olib chiqishga yordam beradi. Xalqiga va qarindosh-urug'lariga qo'lidan kelgan barcha yaxshiliklarni qilish, ularni hurmatini joyiga qo'yish kabi insoniylik fazilatlarini shakllantiradi. Bu esa imonli, e'tiqodli, g'ururli, odobli, tarbiyali shaxsni voyaga yetkazishning asosiy maqsadidir. Demak, ulug' mutafakkirlarning asarlari haqida tushuncha va ma'lumotga ega bo'lish har bir shaxsning dunyo-qarashi, ongi, fikri, his-tuyg'u, iroda kabi insoniy fazilatlariga ta'sir etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori allomalar merosini o'rganish nafaqat xalqimiz, balki milliy tarbiya asoslarining rivojida alohida o'rin tutadi. Chunki, ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona yurtga sadoqat tuyg'ularini ifoda etishi, yer yuzidagi millionlab xalqlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egallagan. Shu jihatdan ham Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o'rganish, uning o'lmas asarlarini yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib qilish hamda xotirasini abadiylashtirish borasidagi ta'lim tizimida bir qancha uzluksiz ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Chunki, o'zbek xalqining buyuk mutafakkiri, shoir Alisher Navoiy butun hayoti davomida va asarlarida tarbiyaga katta ahamiyat bergan. Yosh avlodga tarbiya va ta'lim berish uchun vaqtini ham, kuchini ham ayamasklikka harakat qilgan. Mutafakkir shu bilan birga inson huquqlarini, uning or-nomusi va qadr-qimmatini himoya qildi. Navoiy, dunyoda inson kamolotidan ulkan narsa yo'q, chunki unga tabiat va jamiyat sir-asrorlarini va cho'qqilarni bilish qobiliyati, aql-zakovat kuchi hadya etilgan, deb o'yladi. Shuning uchun ham xalqning osoyishta va bunyodkor hayotini buzuvchi yomonlikka, xalqning xo'rlanishiga va ijtimoiy ofatlarga olib keluvchi voqea-hodisalarga qarshi chiqadi. Xalqqa zo'ravonlik qilishni u eng ulkan yovuzlik deb qoralaydi. Shu sababli, shoir o'sha davrdagi qon-qardoshlar urushlari va ijtimoiy falokatlarga qarshi baralla bosh ko'tarib, yovuzlikning butun mudhish oqibatlarini jonli misollarda ko'rsatib berdi. Alisher Navoiyning tarbiya konsepsiyasida vatanparvarlik, mehnatsevarlik va boshqa juda ko'p ilg'or g'oyalar o'rin olgan.

Inson kamolotining fazilatlaridan hisoblangan adolat tushunchasi va adolat tuyg'usi Navoiy donishmandligining asosini tashkil etadi. Uning ta'kidlashicha, ongning mavjudligi adolatning mavjudligi. Adolatsiz ong-ong emas. Insoniyat tirikligining davomiyligini ta'minlaydigan birdan-bir narsa ham adolat. Navoiy tafakkur dunyosining bosh mezoni ham xuddi shu adolat bo'lgan. Barchaga barobar manfaatli adolat ustuvor bo'lganida mamlakat va uning fuqarolari farovonlikka erishishi Navoiyning orzusi edi.

Mamlakatning osoyishtaligi, obodonchiligi, xalqning nizolarsiz tinch-totuv yashashi, turmushning farovon bo'lishi davlatni aql bilan idora qiladigan dono yo'lboshchiga, sahiy va oliyjanob, kamtarin va adolatli shoxga bog'liq deydi, Alisher Navoiy. Shuning uchun ham Navoiy adolatning buyuk qudratini ko'rsatib, davlat boshqaruvchilarini bundan ibrat olishga chaqiradi.

*Ki adl ichra o'tganda bir soate
Erur behhi, jinni bashar toate.*

Ya'ni adolat bilan o'tgan bir soat vaqt butun insonlaru jinlar yohud-parilarning birgalikda qilgan toat-ibodatidan ham afzal. Navoiy adolat bobidagi fikrlarini rivojlantirib Payg'ambarimizni yana bir fasohatli hadisini keltiradi.

*Qolur kufr aro qolsa obod mulk,
Bo'lur zulm agar bo'lsa barbod*

Agar obod mamlakatga qaralmasa, vayron bo'ladi, demak bu mamlakat boshlig'ining xalqqa zulm o'tkazganligining natijasidir. Hazrati Alisher Navoiy adolat haqida yana shunday degan edilar.

*Adl ila odam yuzini obod qil,
Xulq ila odam elini shod qil.*

Buyuk tarixchi olim Alisher Navoiyning zamondoshi Xondamir “Makorimul axloq” asarida.

“... adolat va insof eshiklarini insoniyat yuziga ochib qo'ydi”, – deb hazrat Navoiyga yuqori baho bergan.

Shu bois, mavlono Navoiy adolat va insonparvarlikning eng yuqori namunasi edi. Buyuk bobolarning mana shunday turfa xislatlari avlodlar qonida doimo shiddatli jo'shishi, ularni erku adovatga da'vat qilib turish kerak. Chunki insonning axloqiy qiyofasi, jamiyat manfaatlariga, Vatan baxt-saodati uchun qilinadigan munosabati, uning bolalik yillarda buyuk allomalarning hayoti va faoliyati haqida egallagan ma'lumotlariga, olgan tarbiyasiga bog'liqdir.

Chunki, bolaning ma'naviy tarbiyasi yetuklikligining asosi hisoblanadi. Har bir kishi hayotga o'zining insoniy burchi nuqtayi nazaridan qarashi bolalik yillaridan shakllanishi lozim.

Shuning uchun ham Navoiy insonning eng yuksak fazilatlaridan sahovat va ximmat deb hisoblaydi. Uning fikricha, yaxshilik sari muhtoj kishiga foydali bo'lishga intilish har bir axloqli kishiga xosdir. Navoiy ana shu fazilati bo'lmagan insondursiz chig'anoqqa, ko'klam fasli yomg'ir keltirmaydigan bulutga o'xshatadi.

Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” dostonida yetuk shaxsning ma'naviyatidagi yaxshilik, sahovat, soflik, hayo, muruvvat, andisha, adab, kamtarlik, qanoat, rostgo'ylik, insof, adolat, bag'rikenglik singari fazilatlar ta'riflanib, ruhiy kamolot yo'llari tahlil etilgan. Navoiyning orzulari inson yuksak darajaga ko'tarish dunyoqarashini shakllantirish bo'lgan.

Alisher Navoiy “Olamdan o'tay desang, ilmu hunar o'rgan. Dunyodan kamolotga yetmay o'tish, xammomdan toza bo'lmay chiqishning o'zi” deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, yosh avlodni kamolotga yetkazish ularni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlariga ega kishilar qilib yetishdirishdir. Bunda tarbiya yetakchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga u tarbiya ta'siriga beriluvchi, qobiliyatli o'quvchi bolalar bo'lgani singari yomon xulqli bolalarni tuzatish mumkinligiga ishonch bildiradi. Navoiy bolalarga ilm-ma'rifat berish bilan birga odobga o'rgatishni xam vazifa qilib qo'yadi. Bola shaxsining kamolotida tarbiyaning yuksakligini ta'kidlaydi.

Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni bilan xalqaro birodarlikni va do'stlikni, buyuk o'zbek xalqining asrlar bo'yi xalqparvar va do'stparvar bo'lib kelganini isbotladi. Dostonda baynalminallik insoniylikning asosiy belgilaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Do'stlik, sadoqat, sevgi va vafo joy va millat tanlamasligi xitoylik Farhod, Shopur va arman qizi Shirin misolida, go'zal tasvirlarda bayon etiladi. Dostonni o'qir ekanmiz, yaxshi va yomon odam, adolatli yoki yovuz qalblar bo'lishi mumkinligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida vafo, do'stlik va sadoqatni juda ulug'laydi. Bu vafo va sadoqatni Shopur obrazida juda yaqqol ifodalaydi. Farhod bilan Shopur do'stlashib, buyuk sadoqat bilan bir-biriga yordamlashadi. Ulug' shoir insonni do'stsiz, birodarsiz tasavvur eta olmaydi va uni o'z hayotida isbot qiladi. Alisher Navoiyning bir umr yolg'iz o'tganligi, uylanmaganligi o'z sevgilisi Guliga bo'lgan vafodorli-

gi emasmi? Alisher Navoiy Guli vafot etgach qabriga borib turishni haj ziyoratidek biladi. Yurtning otashnafas bulbulidek she'rlar bitadi.

Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida ilm orqali Farhodning aql-idrokni, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e'tiqodli insonning yetukligini ko'rsatuvchi sifatlardan biri ilm egallash ekaniga ishonch hosil qiladi.

*Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.*

Bu satrlarda shoir Farhoddagi insoniy sifatlarni tarannum etib, uning faqat ilm egal-labgina qolmay, odamiyligini ko'rsatadi. Haqiqatdan ham Navoiyning Farhod obrazida insonparvarlik, mehnatga muhabbat g'oyalari mujassamlashgan. Farhoddagi kamtar-lik, boylikka qiziqmaslik o'zini oddiy kishi deb bilishi, mazlum xalqni chin ko'ngildan hurmat qilishi, umummanfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yishi kabi fazilatlar har bir o'quvchiga ibrat bo'ladi. Farhodning insonparvarlik xislatlarini faqatgina adabiyot dars-laridagina emas, "Tarbiya" mashg'ulotlarida ham tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Ana shundagina yuqori sinf o'quvchi kamolot yo'liga chiqish uchun asta-sekin o'zligini izlaydi, olamni taniydi.

Navoiy o'z davrida komil insonlarni ahli ma'ni kishilar deb bilgan. Ahli ma'ni bu fikrli odamlardir. Fikrsiz haloyiqning ongida ma'ni chuqurligi bo'lmaydi. Fikrlash-haqiqatni anglashdir. Hamma narsa to'g'risida mustaqil mushohada yuritish demakdir. Ahli ma'ni-lik tufayli ahloqiy ong rivojlanadi. Odam va olam taqdiriga vijdon bilan qarash qobiliyati shakllanadi. Ahli ma'ni kishilar guruhiga oqil va dono, kamtar va oliyjanob, haqiqat-parvar va fidoyilarni ko'rsatish mumkin. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan kishilarning tafakkur qilishi kengdir. Chunki ularda aql oddiy so'z va tushunchalardan emas, diyo-nat, adolat, inson, imyon, ishq, dard tuhfalari kamol topgan bo'ladi. Navoiy deydilarki: "ahli surat"larga shoh bo'lguncha ma'ni ahli yig'inida gado bo'lmoq ming karra afzaldir". Alisher Navoiyning fikricha, ahli ma'ni kishilar ma'naviyati yetuk shaxslardir.

Alisher Navoiyning, komil inson haqidagi fikrlar, yuksak axloq-odob haqidagi g'o-yalar bugun ham tarbiya jarayonlarida qimmatli dasturdir. Modomiki shunday ekan, ulardan ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan o'quvchi-yoshlar o'rtasida Alisher Navoiy faoliyati, hayoti, ijod yo'li haqida hikoya qiluvchi lavhalar namoyish etish, yangrayotgan milliy mumtoz qo'shiqlari, adabiy gurunglar, ijodiy suhbatlar, she'rxonlik kechalarini o'tkazishi bobo-larimizning ibratli hayotini o'rganish kabilarni mamlakatimizdagi ma'rifiy yangilanish va milliy tarbiyani takomillashtirishdagi o'rni va ahamiyati benihoya kattadir. Ayni paytda tarbiya jarayoniga qaratilayotgan cheksiz e'tibor Navoiy qadrlagan, e'zozlagan shaxsga bo'lgan ehtiromning amaldagi yorqin namunasidir. Shu o'rinda ta'kidlash ke-rakki maktabda hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodi asosida "Navoiy siymosi va asar-lari" festivalini o'tkazish, shoir g'azallari asosida "Nazm va navo" kechalarini, maqom tanlovlarini tashkil etish kabilarni amalga oshirish o'quvchilarda ulug' ona yurtimizni yuksaklarga ko'tarish sadoqatini shakllantiradi. Bu o'rinda ajdodlarimiz merosini ke-lajak avlodga yetkazish o'qituvchilarning mas'uliyatli burchi hisoblanadi. Chunki al-lomalar merosi millat madaniyati va tarbiyaning asosiy ko'rsatkichidir. Shu jihatdan ham o'qituvchilar asrlar davomida qishilar tomonidan yaratib kelingan xalq og'zaki ijodi va uning muhim tarbiyaviy ta'siri ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotda to'pla-gan tajribalari asosida o'quvchilarda axloqiy poklik, halollik va rostgo'ylik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, o'zini tuta bilish, mehnatsevarlik, do'stlik-o'rtoqlik, oddiylik va kamtarinlik, adolat, nomus, insoniy tuyg'ulari, xalq o'rtasidagi hikmatli so'zlar, tur-

mushda orttirilgan donoliklarini chuqur egallashlari ularning tarbiyalanganlik darajalarini samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'qituvchi o'quvchi yoshlar bilan hadislarida axloq – odobga doir ko'rsatmalarni, hadis ilmining yirik targ'ibotchilari va mualliflari “Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn at-Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiy, Abdu-Abdulloh Muhammad ibn yazil ibn Mojjalar haqida tushuncha va ma'lumotlar asosida va Islom dini ta'limotlardagi ma'rifiy-tarbiyaviy ta'limning mohiyati kabilarni ular ongida shakllantirishi muhim hisoblanadi. Shuningdek, Temuriylar davri G'aznaviylar, Xorazmshohlar, Navoiylar zamonini o'rganish, ulug' allomalarimizning salohiyati va faoliyati ilm-fan, ta'lim va tarbiya, madaniyatni rivojlantirishdagi ahamiyatini o'quvchilar ongiga yetkazish ularda tarixiy va madaniy tafakkur taraqqiyotining asosi hisoblanadi.

Ma'naviy hayotimizda o'chmas iz qoldirgan atoqli yozuvchi va shoirlarning tarixiy xotirasini o'rganish, yosh avlodning madaniy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish maqsadida ochiq darslar tashkil etish va ular asosida o'quvchi yoshlar ruhiyatida jasorat, mardlik, ulug' ideallarga sodiqlik kabi g'oyalarni teran idrok etish, jamiyat hayoti, milliy istiqbol g'oyalari, o'zbek xalqining millatparvar fidoyi ijodkorlari, shoir va yozuvchi, dramaturg va publitsist, 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchilarining tarixi va ijodini chuqur o'rganish, ularni keng targ'ib qilish ishlarini tizimli tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Yoshlar yurtning ertasi, buguni, yorug' yuzidir. Shu jihatdan ham yoshlarni doim har sohada faol bo'lishga, yurtimiz ravnaqi yo'lida xizmat qilishga, yangi O'zbekistonning taraqqiyotiga tayyorlash kabilarni takomillashtirish ularning ma'naviy olamini, ta'limning tarbiyaviy mohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu vazifalar o'quvchi-yoshlarda vatan tuyg'usi, millatning sha'ni va qadr-qimmatini, or-nomusi, orzu-umidlari, yuksak g'oyalarni amaliyotga joriy etishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, allomalar meros tarbiya jarayonida har bir o'quvchining ijtimoiy hayotida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, tarbiya jarayonida allomalar merosni o'rganish o'quvchining axloqiy fazilatlarini rivojlantirish asosida jismonan baquvvat, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ishlash va ongli yashash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonaviy fan-texnika va texnologiya yutuqlarini o'zlashtiradigan, ma'lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni shakllantirish vazifalarini amalga oshiradi. Allomalar merosi asosida o'quvchilar ongini va tarkib toptirish va rivojlantirish bilan birga tarbiya jarayonlarini, tarbiya jarayonida faol amalga oshirish yangi O'zbekistonda yangi avlod kadrlarni tayyorlashda o'z samarasini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va mu-rabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.* – T., 2020.
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida”gi Qa-rori.*